

11-DARS. KASHTAN MEVASIDAN YASALGAN BUYUMLAR

Dars maqsadlari:

- o'simliklar va tabiiy materiallarning xilma-xilligi haqidagi tasavvurni kengaytirish;
- plastilindan shakl yasash ko'nikmasini rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juftlikda ishlash, faol tinglash, o'z fikrini ifodalash, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyati);
- plastilindan yasash va tabiiy materiallardan foydalanib buyumlar yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: darslik, plastilin, plastilin uchun taxta va stek, tabiiy material (kashtan mevalari), tayyor buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi darsning maqsadi juftlikda ishlash, kashtan mevalaridan o'yinchoqlar o'ylab topish va yasash ekanligini tushuntiradi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

Sizningcha, kashtan mevalaridan qanday o'yinchoqlar yasash mumkin?

Qanday o'yinchoqlar yasashni xohlaysiz?

O'quvchilar darslikda ko'rsatilgan o'yinchoqlar juftligini tanlashlari yoki kashtan mevalaridan o'zlari o'ylab topgan o'yinchoqni yasashlari mumkin.

O'qituvchi juftliklarga qaror qabul qilish uchun ozgina vaqt beradi va ularning ishini taqsimlashga yordam beradi.

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi tuzilishga ko'ra odatdagidek o'tkaziladi.

Darslikda o'quvchilarga yordam sifatida video ko'rsatma berilgan bo'lib, ular shu asosida ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari mumkin.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil bajariladi. Zarur bo'lsa, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va refleksiya (5 daqiqa).

O'quvchilar quyidagi savollarga javob beradilar:

Darsda nima qiyin bo'ldi?

Qanday buyum yasadingiz?

Kashtan nima?

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilar tabiiy materiallardan buyumlar yasashda foydalana oladilar;
- o'quvchilar tabiiy materiallarning xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar;
- o'quvchilar buyum yasashda tasavvur va ijodkorliklarini qo'llay oladilar;
- o'quvchilar plastilindan shakl yasash texnikasini qo'llay oladilar.

12-DARS. QIRQAMIZ-YELIMLAYMIZ**Dars maqsadlari:**

- qog'ozdan shakllarni qirqish, kesish, bukish va yelimlash texnikasi haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- fazoviy va ko'rgazmali-tasviriy tafakkurni rivojlantirish;
- muloqot va hamkorlik kabi kompetensiyalarni shakllantirish (juft bo'lib ishlash, faol tinglash, o'z fikrini ifodalash, suhbat olib borish, maqsad qo'yish va unga erishish qobiliyati);
- yakuniy natijaga erishish uchun harakatlar ketma-ketligini to'g'ri bajarish qobiliyatini rivojlantirish;
- xavfsizlik texnikasiga rioya qilishning muhimligini tushunishni shakllantirish.

Kerakli materiallar: darslik, qaychi, yelim, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi savollar beradi:

Kubiklar bilan o'ynashni yoqtirasizmi?

Kubiklardan nimalar qurishni yaxshi ko'rasiz?

Sizningcha, kubiklar bilan o'ynash qanday foyda keltiradi?

Kubiklardan biror narsa qurish qobiliyati nimaga o'rgatadi, qayerda kerak bo'lishi mumkin?

O'quvchilarning javoblaridan so'ng o'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar kubiklardan inshootlar qurishini ma'lum qiladi. Lekin avval kubiklar yasab olish kerak. O'quvchilar 5-6 kishilik guruhlariga bo'linishlari lozim. Har bir guruhning vazifasi o'z inshootini o'ylab topish, buning uchun